# Fonetika va fonologiya bo‘limini o‘rganish

Ma’ruzachi: Shomurodova Sitorabonu Xoshim qizi

1. Tovush va fonemaning nutq va tilda aks etishi

2. Nutq tovushlari tasnifi

3. Bo‘g‘in va urg‘u

4. Fonetik tahlil namunasi

# 1-topshiriq: Quyidagi ingliz alifbosiga va ular ifodalagan belgiga diqqat qiling. o‘zbek tilida ham alifboni shunday talqin qilish mumkinmi?



# 1.Tovush va fonemaning nutq va tilda aks etishi

1. Fonema – inson ongida yashovchi birlik

2. Tovush – real talaffuz qilganimizda hosil bo‘ladigan birlik

3. Fonema ma’no farqlashga xizmat qiladi: tosh-tush

4. Tovush artikulyatsiya orqali yuzaga chiqadi

# Nutq tovushlari 2 ga bo‘linadi:

**Unlilar**

o‘pkadan chiqayotgan havo to‘siqqa uchramaydi

**Undoshlar**

o‘pkadan chiqayotgan havo to‘siqqa uchraydi

# Unlilar tasnifi 3 xil yo‘l bilan amalga oshiriladi

- I. Tilning vertikal harakatiga ko‘ra
- II. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra
- III. Lablarning ishtirokiga ko‘ra

# I. Tilning vertikal harakatiga ko‘ra unlilar tasnifi




Yuqori tor: I, U

o‘rta keng: E, o‘

Quyi keng: A, O

# II. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra unlilar tasnifi:




Til oldi:
I, E, A

Til orqa:
U, o‘, O

# III. Lablarning ishtirokiga ko‘ra unlilar tasnifi:

| Lablangan | Lablanmagan |
| --- | --- |
| U | I |
| o‘ | E |
| | A |

Oraliq unli: O

# Undosh tovushlar tasnifi

**1-tasnif**

**Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra**

**2-tasnif**

**Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra**

**3-tasnif**

**Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra**

**Tasnif - bu**

**Guruhlarga, sinflarga bo‘lish demakdir**

# I. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra

**Lab undoshlari**

1. Lab-lab: b, m, p
2. Lab-tish: f, v

**Til undoshlari**

Til oldi: d, j, j(ajdar), l, n, r, s, t, z,sh, ch
Til o‘rta: y
Til orqa: a)sayoz: g, k, ng; b) chuqur: q, g‘, x

**Bo‘g‘iz undoshi**

h

# II. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar tasnifi

| | | |
|---|---|---|
| Portlovchilar | 01 | b, d, g, k, m, n, p, q, t, ng |
| Sirg‘aluvchilar | 02 | f, h, j(ajdar), l, r, s, v, x, y, z, g‘, sh, |
| Qorishiqlar | 03 | ch, j |

# III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra

1 **Jarangli: b, d, g, dj, j, l, m, n, r, v, y, z, g‘, ng**

2 **Jarangsiz: f, h, k, p, q, s, t, x, sh, ch**

3 **Sonorlar: l, m, n, r, ng (limonrang)**

# Bo‘g‘in va urg‘u

## Bo‘g‘in

Bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovushlar to‘plami

## Bo‘g‘in turlari

Ochiq: do-no
Yopiq: daf-tar

## Bo‘g‘in turlari

Berkitilgan: ba-ra-ka
Berkitilmagan; an’-a-na

## Bo‘g‘inning vazifasi:

1.Savod o‘rgatishda
2. She’riyatda
3. Ko‘chirishda

# Urg‘u gap urg‘usi va so‘z urg‘usiga bo‘linadi

Ertaga men Samarqandga boraman. Odatda, kesim oldidagi so‘z gap urg‘usini oladi

## Gap urg‘usi

Gapdagi ma’lum bir so‘zning boshqalariga nisbatan baland ohangda aytilishi.

Gap urg‘usining boshqacha nomlari: ma’no urg‘usi, mantiqiy urg‘u, frazaviy urg‘u



# So‘z urg‘usi

**Gapdagi biror-bir bo‘g‘inning boshqalariga nisbatan cho‘zib aytilishi so‘z urg‘usidir**

**o‘zbek tilida, odatda, so‘z oxiriga urg‘u tushadi:**

**bola**

**Urg‘u so‘zga qo‘shimcha qo‘shilganda, ko‘chadi:**

**bolalar**

**Ayrim so‘zlarda urg‘u birinchi yoki o‘rta bo‘g‘inda bo‘ladi:**

**doim, hamisha**

**Urg‘u erkin va bog‘liq urg‘uga bo‘linadi:**

**Doim- bog’liq, bola-erkin**

# Fonetik tahlil bosqichlari



# Fonetik tahlil namunasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| I | Yuqori tor | Til oldi | Lablanmagan |
| N | Til oldi | Portlovchi | Jarangli |
| Sh | Til oldi | Sirg‘aluvchi | Jarangsiz |
| O | Quyi keng | Til orqa | Oraliq |

IN- SHO
in – berkitilmagan yopiq bo‘g‘in;
sho – berkitilgan ochiq bo‘g‘in.

IN<u>SHO</u>+lar=insho<u>lar</u>
Erkin urg’u

# E’tiboringiz uchun rahmat!

